Materiallar to’plami · Conference Proceedings

TIL, TARJIMA VA TA’LIM: GLOBAL KOMMUNIKATSIYA VA RAQAMLI INNOVATSIYALAR DAVRIDA YANGI YONDASHUVLAR

03 October 2026

UDK 37

TIL O‘QITISH METODIKASI VA RAQAMLI PEDAGOGIKA

INGLIZ TILIDA AKADEMIK NUTQNI SHAKLLANTIRISHDA DISKURS MARKERLARNI O‘QITISHNING METODIK MODELI

Dildoraxon Ganiyeva*

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada ingliz tilida akademik nutqni shakllantirish jarayonida diskurs markerlarni o‘qitishning nazariy va metodik asoslari tahlil qilinadi. Diskurs markerlar akademik diskursning mantiqiy izchilligi, semantik yaxlitligi, argumentativ tuzilishi va kommunikativ aniqligini ta’minlovchi funksional-pragmatik vositalar sifatida talqin etiladi. Tadqiqotda diskurs markerlarga oid diskursiv, pragmalingvistik, metadiskursiv va lingvodidaktik yondashuvlar umumlashtirilib, ularning xorijiy til o‘qitish metodikasidagi ahamiyati asoslanadi.

Kalit so‘zlar

diskurs marker, akademik nutq, akademik diskurs, metadiskurs, pragmatik kompetensiya, diskursiv kompetensiya, akademik kommunikatsiya, ingliz tilini o‘qitish metodikasi, mantiqiy izchillik, reflektiv o‘qitish.

DOI: 10.5281/zenodo.23278433

Kirish

Zamonaviy til ta’limida akademik nutq kompetensiyasi faqat grammatik to‘g‘rilik yoki lug‘at boyligi bilan belgilanmaydi. Talaba ilmiy fikrni mantiqiy ketma-ketlikda rivojlantira olishi, argument va dalil o‘rtasidagi munosabatni ochib berishi, muqobil nuqtayi nazarni ajratishi, fikr qismlarini bir-biriga mazmunan bog‘lashi va auditoriyaga nutqning strukturasi haqida zarur signallar bera olishi kerak. Shu jihatdan diskurs markerlar akademik kommunikatsiyaning muhim lingvistik vositalaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Diskurs marker tushunchasi tilshunoslikda yagona ta’rifga ega emas. Mazkur termin turli ilmiy maktablarda diskurs markers, pragmatic markers, diskurs connectives, cue phrases, diskurs particles kabi nomlar bilan izohlangan. Terminologik xilma-xillikning o‘zi ushbu birliklarning sintaktik, semantik va pragmatik xususiyatlarini bir vaqtning o‘zida qamrab olishini ko‘rsatadi. D.Shiffrin diskurs markerlarni diskursning turli darajalarini o‘zaro bog‘lashga xizmat qiluvchi birliklar sifatida talqin qiladi.[9] Uning yondashuvida markerlar faqat gaplar o‘rtasidagi formal aloqa vositasi emas, balki nutqning ideatsion, strukturaviy va interaktiv tashkilini boshqaruvchi elementlardir. Shu sababli diskurs markerning funksiyasi alohida gap chegarasidan tashqariga chiqadi va butun diskursning rivojlanish mantiqi bilan bog‘lanadi. Pragmatik markerlarning grammatiklashuvi va diskursiv funksiyalari L. J. Brinton tomonidan tarixiy va funksional nuqtayi nazardan tizimli yoritilgan [2].

B.Freyzer esa diskurs markerlarni oldingi va keyingi diskurs segmentlari o‘rtasidagi munosabatning qanday talqin qilinishi kerakligini ko‘rsatuvchi pragmatik vositalar sifatida tavsiflaydi.[4] Bu yondashuvda markerning asosiy vazifasi yangi predmet mazmunini yaratish emas, balki mavjud mazmun qismlari orasidagi munosabatni ko‘rsatishdan iborat. Demak, markerning qiymati ko‘pincha uning leksik mazmunidan ko‘ra diskursdagi funksiyasi bilan belgilanadi. Mazkur nazariy qarashlar diskurs markerlarni ingliz tilini o‘qitishda alohida leksik birliklar sifatida emas, balki akademik fikrni tashkil qiluvchi funksional vositalar sifatida o‘rgatish zarurligini ko‘rsatadi.

Diskurs marker va diskursiv kompetensiya Akademik nutqning rivojlangan shakli o‘quvchidan diskursiv kompetensiyani talab qiladi. Diskursiv kompetensiya alohida gaplar tuzish qobiliyatidan farqli ravishda, mazmunan yaxlit va mantiqan izchil nutq yaratish qobiliyatini anglatadi. M.A.K.Halidey va R.Hasan tomonidan ishlab chiqilgan cohesion nazariyasi matndagi birliklar o‘rtasidagi semantik aloqalarning qanday shakllanishini tushuntirishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.[6] Ular matn yaxlitligini grammatik va leksik vositalar orqali yuzaga keladigan bog‘liqlik bilan izohlaydilar. Bog‘lovchilar tizimi ham matnning semantik aloqalarini tashkil etuvchi muhim komponentlardan biri hisoblanadi. Biroq diskurs marker tushunchasi kogeziya tushunchasidan kengroqdir. Kogeziya ko‘proq matn ichidagi formal-semantik bog‘lanishlarga e’tibor qaratsa, diskurs markerlarning tadqiqi ularning pragmatik va interaktiv funksiyalarini ham qamrab oladi. Shu sababli akademik nutqda markerlar nafaqat fikrlarni bog‘laydi, balki so‘zlovchining kommunikativ strategiyasini ochib beradi. Bu qarash diskurs markerlarni pedagogik nuqtayi nazardan yangi pozitsiyada ko‘rishga imkon beradi. Talabaga *however, therefore, furthermore* kabi birliklarning tarjimasini o‘rgatishning o‘zi yetarli emas. U mazkur birliklar orqali auditoriyaga qanday signallar berayotganini tushunishi kerak.

Diskurs markerlarning akademik nutqdagi o‘rnini to‘liq tushunish uchun ularni faqat matn qismlarini bog‘lovchi formal vositalar sifatida emas, balki so‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasidagi kommunikativ munosabatni boshqaruvchi pragmatik birliklar sifatida ham ko‘rib chiqish lozim. Akademik diskursda so‘zlovchi ma’lumotni oddiy ketma-ketlikda bayon qilmaydi, balki tinglovchiga fikrning qaysi bosqichda ekanini, qanday mantiqiy munosabat shakllanayotganini va keyingi axborotni qanday talqin qilish zarurligini bildiradi. Shu nuqtayi nazardan diskurs markerlar nutqning tashkiliy tuzilishi bilan bir qatorda uning interpretativ yo‘nalishini ham belgilaydi. Flowerdew va Tauroza olib borgan eksperimental tadqiqotda diskurs markerlar mavjud bo‘lgan ma’ruza parchasini ikkinchi til o‘rganuvchilar markerlar olib tashlangan variantga nisbatan yaxshiroq tushunganlari aniqlangan [3].

Akademik diskursni tadqiq qilishda K.Haylend tomonidan rivojlantirilgan metadiskurs nazariyasi ham muhim ahamiyatga ega. Haylend metadiskursni muallif yoki so‘zlovchining matnni tashkil qilish, o‘z pozitsiyasini ifodalash va auditoriya bilan kommunikativ munosabat o‘rnatish uchun foydalanadigan vositalari sifatida talqin qiladi.[7] Bu nuqtayi nazardan akademik nutq faqat bilimni yetkazish shakli emas, balki muallifning auditoriyani o‘z argumenti bo‘ylab yo‘naltiradigan ijtimoiy-kommunikativ faoliyatidir.

Haylend va Tse metadiskurs birliklarining akademik matnda tashkiliy va interpersonal vazifalar bajarishini alohida ko‘rsatadilar.[8] Tashkiliy vositalar matnning mantiqiy va kompozitsion tuzilishini shakllantirsa, interpersonal vositalar muallifning o‘z fikriga munosabati hamda o‘quvchi yoki tinglovchi bilan munosabatini ifodalaydi. Diskurs markerlarning muayyan qismi aynan shu ikki yo‘nalish kesishgan nuqtada namoyon bo‘ladi.

Shu sababli diskurs marker kompetensiyasini faqat ma’lum birliklarning ma’nosini bilish bilan cheklash ilmiy-metodik jihatdan yetarli emas. Talaba markerning qanday sintaktik pozitsiyada kelishini, qaysi semantik-pragmatik munosabatni ifodalashini, akademik nutqning qaysi bosqichida qo‘llanishini va auditoriya tomonidan qanday talqin qilinishini ham anglay olishi kerak. Fung va Carter native speakerlar hamda ingliz tilini o‘rganuvchilarning og‘zaki nutqini qiyoslab, diskurs markerlar interpersonal, referensial, strukturaviy va kognitiv funksiyalarni bajarishini ko‘rsatadilar [5].

Diskurs markerlarni ingliz tilida akademik nutqni shakllantirish vositasi sifatida o‘rganish nazariy va metodik jihatdan kompleks yondashuvni talab qiladi. Tahlil qilingan ilmiy qarashlar mazkur birliklarni faqat bog‘lovchi yoki yordamchi leksik element sifatida izohlash ularning haqiqiy kommunikativ imkoniyatlarini to‘liq ochib bermasligini ko‘rsatadi.

Shiffrinning diskursiv yondashuvida markerlar nutq strukturasining turli darajalarini bir-biri bilan bog‘lovchi element sifatida namoyon bo‘ladi [9]. Fraser ularning diskurs segmentlari o‘rtasidagi semantik-pragmatik munosabatni ko‘rsatish xususiyatiga urg‘u beradi [4]. Halidey va Hasan tomonidan ishlab chiqilgan cohesion nazariyasi matn yaxlitligini ta’minlovchi formal-semantik vositalarning rolini tushuntiradi [6]. Haylendning metadiskurs modeli esa akademik kommunikatsiyada til birliklari nafaqat matnni tashkil qilishi, balki muallif va auditoriya o‘rtasidagi munosabatni ham shakllantirishini ko‘rsatadi [7; 8].

Ushbu nazariy qarashlarning umumiy jihati diskurs markerlarning diskursning tashkiliy va interpretativ mexanizmida faol ishtirok etishidir. Shu sababli ularni o‘qitishning maqsadi alohida markerlarning lug‘aviy

ma’nosini yodlatish emas, balki talabaning akademik fikrni mantiqan tashkil etish va auditoriyani ushbu fikrning rivojlanishi bo‘ylab yo‘naltirish qobiliyatini rivojlantirishdan iborat bo‘lishi kerak.

Bunda diskurs marker kompetensiyasining lingvistik, diskursiv va pragmatik komponentlari o‘zaro bog‘langan holda shakllanadi. Lingvistik komponent markerning shakli va grammatik xususiyatlarini bilishni nazarda tutadi. Diskursiv komponent uning nutq segmentlarini mantiqiy tuzilishga birlashtirishdagi vazifasini anglashni qamrab oladi. Pragmatik komponent esa muayyan kommunikativ vaziyat uchun mos vositani tanlash qobiliyatini belgilaydi.

Shu jihatdan diskurs markerlarni o‘qitishda faqat explicit tushuntirishga yoki faqat kommunikativ amaliyotga tayanish yetarli emas. Nazariy anglash va amaliy qo‘llashning o‘zaro integratsiyasi zarur. Talaba dastlab autentik akademik diskursdagi qonuniyatlarni kuzatishi, so‘ng ularni funksional jihatdan anglab yetishi va keyinchalik mustaqil nutq faoliyatiga ko‘chirishi lozim. Taklif etilgan besh bosqichli model mazkur jarayonning izchilligini ta’minlashga xizmat qiladi. Modeldagi kuzatish bosqichi til hodisasiga nisbatan sezgirlikni, funksional anglash bosqichi metalingvistik bilimni, kontekstual differensiasiya pragmatik tanlov qobiliyatini, mustaqil qo‘llash produktiv diskursiv kompetensiyani, reflektiv baholash esa o‘z nutqini nazorat qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Alraddadining EFL auditoriyasida o‘tkazgan eksperimental tadqiqoti esa strukturaviy diskurs markerlarni explicit o‘qitish va ularni og‘zaki prezentatsiya nutqida qo‘llash o‘rtasidagi bog‘liqlikni metodik jihatdan tekshirgan [1].

Shuningdek, diskurs markerlarni ortiqcha ishlatishni ham rivojlangan akademik nutq belgisi sifatida baholash mumkin emas. Akademik nutqning sifati markerlarning ko‘pligi bilan emas, ularning mantiqiy va kommunikativ jihatdan asoslangan qo‘llanishi bilan belgilanadi. Shu sababli metodik modelda miqdoriy ko‘rsatkichlardan ko‘ra funksional aniqlik va kontekstual moslik ustuvor mezon sifatida belgilanadi.

Nazariy jihatdan mazkur model diskurs markerlar, metadiskurs va diskursiv kompetensiya haqidagi qarashlarni lingvodidaktik jarayonda birlashtiradi. Metodik jihatdan esa u talabani tayyor birliklarni takrorlovchi o‘rganuvchidan akademik nutq strategiyalarini ongli ravishda tanlaydigan faol kommunikatorga aylantirishga yo‘naltiriladi.

Demak, diskurs markerlarni maqsadli o‘qitish akademik nutqni rivojlantirishning ikkilamchi elementi emas, balki uning mantiqiy, pragmatik va kommunikativ yaxlitligini shakllantirishga xizmat qiluvchi muhim pedagogik komponent sifatida qaralishi lozim.

Xulosa

Ingliz tilida akademik nutqni shakllantirish jarayonida diskurs markerlar fikrlar o‘rtasidagi semantik va pragmatik munosabatlarni belgilash, argumentni strukturallashtirish, nutqning umumiy yo‘nalishini ko‘rsatish hamda auditoriyaning ilmiy mazmunni izchil qabul qilishini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Nazariy tahlil diskurs markerlarni faqat bog‘lovchi birliklar sifatida emas, balki diskursning tashkiliy, pragmatik va interpersonal xususiyatlarini shakllantiruvchi funksional resurslar sifatida talqin qilish lozimligini ko‘rsatdi.

Diskurs markerlarni o‘qitishda ularning tarjima ekvivalentlarini mexanik o‘zlashtirishga asoslangan yondashuv talabalarda to‘liq diskursiv kompetensiyani shakllantira olmaydi. Shu sababli funksional, kontekstual va reflektiv yondashuvlarning integratsiyasi zarur.

Maqolada taklif etilgan *kuzatish – funksional anglash – kontekstual differensiasiya – mustaqil qo‘llash – reflektiv baholash* modeli talabaning diskurs markerlarni passiv bilishidan ularni akademik kommunikatsiyada ongli va maqsadga muvofiq qo‘llashigacha bo‘lgan jarayonni qamrab oladi.

Mazkur modelning ilmiy-metodik ahamiyati diskurs markerlarni alohida leksik material emas, balki akademik diskursiv kompetensiyani shakllantiruvchi funksional vosita sifatida talqin qilishida namoyon bo‘ladi. Kelgusida ushbu modelni tajriba-sinov asosida tekshirish, talabalar akademik nutqida diskurs markerlarning funksional xilma-xilligi, chastotasi va kontekstual mosligini qiyosiy tahlil qilish mazkur yo‘nalishdagi tadqiqotlarni yanada rivojlantirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

[1] Alraddadi B. M. The Effect of Teaching Structural Discourse Markers in an EFL Classroom Setting // English Language Teaching. – 2016. – Vol. 9, No. 7. – P. 16–31.

[2] Brinton L. J. Pragmatic Markers in English: Grammaticalization and Discourse Functions. – Berlin–New York: Mouton de Gruyter, 1996.

[3] Flowerdew J., Tauroza S. The Effect of Discourse Markers on Second Language Lecture Comprehension // Studies in Second Language Acquisition. – 1995. – Vol. 17, No. 4. – P. 435–458.

[4] Fraser B. What Are Discourse Markers? // Journal of Pragmatics. – 1999. – Vol. 31, No. 7. – P. 931–952.

[5] Fung L., Carter R. Discourse Markers and Spoken English: Native and Learner Use in Pedagogic Settings // Applied Linguistics. – 2007. – Vol. 28, No. 3. – P. 410–439.

[6] Halliday M. A. K., Hasan R. Cohesion in English. – London: Longman, 1976.

[7] Hyland K. Metadiscourse: Exploring Interaction in Writing. – London: Continuum, 2005.

[8] Hyland K., Tse P. Metadiscourse in Academic Writing: A Reappraisal // Applied Linguistics. – 2004. – Vol. 25, No. 2. – P. 156–177.

[9] Schiffrin D. Discourse Markers. – Cambridge: Cambridge University Press, 1987.